



**O'ZBEKSITON RESPUBLIKASINING XALQARO MIGRATSİYA TASHKİLOTIGA
QO'SHILGANLIGI VA TASHKİLOTNING O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI BİLAN
ALOQALARI**

Raximov Kozim Raxim o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti
«Xalqaro huquq» fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasi va davlat organlari o'rtasidagi aloqalari haqida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga a'zo bolib kirishi hamda tashkilot bilan tuzilgan bitimlar shartnomalar haqida bilib olishingiz mumkin. Bundan tashqari Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasining davlat organlari o'rtasida bo'lib o'tgan yig'ilishlar va ular o'rtasida tuzulgan ahslashuv memarandumlar, shuningdek bugungi kunda O'zbekistonda sodir bo'layotgan eng muhim siyosiy jarayon ya'ni referendum vaqtida Markaziy saylov komissiyasi hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti o'rtasidagi aloqalar haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro migratsiya tashkiloti, ahslashuv memarandumi, vakolatxona, sessiya.

Аннотация: В этой статье вы можете узнать о связях между Международной миграционной организацией и Республикой Узбекистан и государственными органами, а также о вступлении республики Узбекистан в эту организацию, а также о соглашениях, заключенных с организацией. Кроме того, речь шла о прошедших встречах между Международной организацией по миграции и государственными органами Республики Узбекистан и заключенных между ними договорных меморандумах, а также о важнейших политических процессах, происходящих сегодня в Узбекистане, а именно о связях между Центральной избирательной комиссией и Международной организацией по миграции во время референдума.

Ключевые слова: Международная организация по миграции, меморандум о взаимопонимании, представительство, сессия.

Abstract: Through this article, you can learn about the contacts of the International Organization for Migration between the Republic of Uzbekistan and state bodies, as well as about the entry of the Republic of Uzbekistan into this organization and the agreements concluded with the organization. In addition, the meetings between the International Organization for Migration and the state bodies of the Republic of Uzbekistan and the memorandum of understanding between them, as well as the most important political process taking place in Uzbekistan today, namely the relations between the Central Election Commission and the International Organization for Migration at the time of the referendum, were also discussed.

Keywords: International Organization for Migration, memorandum of understanding, representation, session.

Bugungi kunda eng katta muommolarga sabab bo'layotgan narsalardan biri, dunyo miqyosida odamlarning soni ortishi natijasida va eng asosiysi ikkinchi jahon urushidan



keyin davlatlar o‘z fuqarolariga yetarlich ish o‘rinlari yartib berishga qiynaladi va buning natijasida odamlar o‘z mamlakatlarida emas balki boshqa mamlakatlarda ishslashga majbur bo‘ladi, bu esa dunyoda migratsiyaning ahamiyatinida yuqori darajada oshirdi. Dunyo bo‘ylab migratsion jarayonlarning ortishi natijasida ko‘plab muammolar yuzaga kela boshladi. Misol uchun, boshqa davlatlarga borayotgan shaxslarning til bilmasligi, shuningdek, mahalliy aholi bilan turli nizolarning kelib chiqishi, va ishchilarning oddiy gigenik qoidalarga rioya qilmasliklari, turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, tibbiy xizmatning vaqtida olinmasligi, bundan tashqari, turli jamoat joylarida o‘zini tutish qoidalarini bilmaligi yoki ularga rioya qilmaligi kabi omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Shu sababli ham yuqorida sanab o‘tilgan omillarda yetarli darajada kamaytirish uchun 1951 yilda Xalqaro Migratsiya tashkiloti tuzuldi. Hozirku kunga kelib Xalqaro Migratsiya tashkilotiga 173 ta davlat a’zo hisoblanadi. Bu tashkilot oraqlari bugungi kunga kelib ko‘pgina migratsiyaga ta’lluqli bo‘lgan muommolarga yechim topilmoqda ya’ni aynan Xalqaro Migratsiya tashkiloti tuzilgandan keyin aynan mana shu tashkilotga a’zo bo‘lgan davlatlar uchun migratsiya muommosi yetarlicha hal qilinmoqda shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi¹⁷ 2019-yil Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida birinchilardan bo‘lib Xalqaro Migratsiya tashkilotiga a’zo bo‘lib kirdi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng ko‘p aholiga ega davlat hisoblanadi shu sababli ham O‘zbekistonda aynan migratsiyaga ta’luqli bo‘lgan mummolar yetarlicha uchraydi. Shuning uchun ham Xalqaro Migratsiya tashkilotga a’zo bo‘lish orqali bu kabi muommolarni yetarlicha darajada hal qilinmoqda, lekin shuni ham hisob olish kerak barcha muommolarni hal qilish uchun yetarli darajada harakat qilinmayapti, yuzaga keladigan muommolarni yetarli darajada hal qilish uchun nafaqt Xalqaro Migratsiya tashkiloti balki har bir davlat ma’suliyatni o‘z zimmasiga olgan holda xarakat qilish kerak hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Migratsiyaga a’zo bo‘lib kirgandan so‘ng tashkilot bilan aloqalarni ancha yaxshilab bormoqda, Misol uchun¹⁸ 2020-yilda O‘zbekiston bilan tashkilot o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Bundan tashqari 2021-yilda esa tashkilotning Toshkentdagi to‘laqonli vakolatxonasi o‘z ishini boshladi. Bu orqali O‘zbekiston bilan tashkilotning aloqalarni yanada mustahkamlanib bormoqda, tashkilotning aynan Toshkent shahrida o‘z vakolatxonasini ochilganligining yana bir sababi, bu albatta bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida aynan O‘zbekistonda chet elga migratsiya bo‘lib ketayotganlarining soni yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari vakolatxonaning ochilishi Xalqaro Migratsiya tashkilotning mamlakatimizdagи salohiyatini yanada oshirish, migratsiya masalalariga doir maslahat xizmati, texnik hamkorlik, shuningdek axborot olish, sog‘licni saqlash, huquq, atrof-muhit hamda odam savdosiga qarshi kurashish, mahalliy va xorijiy fuqarolar migratsiyasi, ko‘chirilgan va boshqa yordamga muhtoj shaxslarga yordam ko‘rsatish, malakali inson resurslarini qaytarish kabi dasturlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari yuqorida aytganimdek 2020-yilda Tashkilot bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasida bir qancha vazifalar ham aytib o‘tilgan. Jumladan 2030

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-4283429>

¹⁸ https://uza.uz/oz/posts/toshkentda-xalqaro-migratsiya-tashkiloti-vakolatxonasi-ochiladi_245021



yilgacha bo'lgan davr mobaynida barqaror rivojlanish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish, va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilishda kafolatlangan tenglik mezonlariga erishish kabi ustuvor vazifalarni belgilab qo'yilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi birinchilardan bo'lib Xalqaro Migratsiya tashkilotining Migratsiya bo'yicha Global shartnomanisini qo'llab-quvvatladi va uni to'liq amalga oshirishda o'z qat'yatini namoyish etdi, va Mamlakatimiz mintaqada birinchi bo'lib Global shartnomani amalga oshirishda milliy darajada erishilgan yutuqlar to'g'risida hisobot ham berdi. Bu orqali O'zbekiston Xalqaro Migratsiya tashkiloti bilan aloqalarini oshirmoqda.

Xalqaro Migratsiya tashkilotining bir qancha bo'linmalari ham mavjud bo'lib ulardan biri Baholash jamosi hisoblandi¹⁹ 2020 yil 3-favralda aynan Xalqaro Migratsiya tashkilotining Baholash jamosi O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradi. Shuni ham aytib o'tishim joizki Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan AQShning Xalqaro rivojlanish agentligi (USAID) ko'magida "Markaziy Osiyoda odam savdosiga qarshi kurashish" mintaqaviy loyihasi amalga oshirilmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti baholash jamoasining yurtimizga qilgan tashrifidan maqsad ham aynan mana shu loyihanining yakunlarini baholash hisoblanar edi. Shuningdek, odam savdosiga qarshi kurashish va xavfsiz migratsiyani ta'minlash borasida faoliyatning asosiy natijalarini aniqlash ko'zda tutilgan. Bundan tashqari,²⁰ 2016-2020 yillarda Xalqaro migratsiya tashkiloti USAID bilan hamkorlikda o'zbekistonda ayni mana yo'nalishda amalga oshirgan faoliyatini baholash asosida yangi qo'shimcha loyihalar uchun ham tavsiyalar ishlab chiqish rejalashtirilgandi. Xalqaro migratsiya tashkilotining baholash jamoasining tashrifi davomida mehmonlar Inson huquqlari bo'yicha o'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo'lim boshliqlari Abdulhay Mo'minov va Oybek Ahmadov bilan uchrashdilar. Uchrashuv davomida odam savdosiga qarshi kurashish hamda migratsiya sohassiga doir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham fikr yuritildi. Jumladan, odam savdosiga qarshi kurashish va xavfsiz migratsiya sohasida aholining huquqiy savodxonligini oshirish, inson huquqlarini himoya qilish tizimini yanada rivojlantirish, odam savdosiga qarshi kurashish va xavfsiz migratsiyani ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasidagi faoliyat natijalarini alohida qayd etildi. Shuningdek bu boradagi qonunchilik va amaliyot masalalari, xususan, Inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz tomonidan Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan hamkorlikda odam savdosiga qarshi kurashish va xavfsiz migratsiyani ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligiga e'tibor qaratildi va bir qancha loyihalar ustida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari ham alohida uchrashuvlar o'tkazmoqda, bir qancha loyihalarni amalga oshirmoqda va ikki tomonlar bitimlar ham imzolanmoqda. Misol uchun²¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida IIV rahbariyatining Markaziy Osiyodagi Xalqaro migratsiya tashkiloti vakillari bilan qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda ichki ishlar vaziri o'rinosasi N.To'raxo'jaev, Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish Bosh boshqarmasi boshlig'i U.Muhamedov, Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish Bosh

¹⁹ <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/xalqaro-migratsiya-tashkiloti-baholash-jamoasining-tashrifi>

²⁰ <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/press-release-about-training-for-journalists-in-ferghana>

²¹ <http://ht.gov.uz/uz/2021/09/hamkorlik-va-sheriklik-munosabatlari-muhokama-qilindi/>



boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari – Odam savdosiga qarshi kurash boshqarmasining boshlig‘i M.Rahimov, hamda Xalqaro hamkorlik boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari E.Marupov, Xalqaro migratsiya tashkilotining Markaziy Osiyodagi submintaqaviy koordinatori Zeynal Gadjiev hamda Xalqaro migratsiya tashkilotining Markaziy Osiyo bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi idorasining O‘zbekiston bilan aloqalar bo‘yicha xodim S.Toshbaevlar ishtirok etishdi. Uchrashuv davomida O‘zbekiston Respublikasi hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlikning ijobiliy natijalari haqida so‘z yuritildi, noqonuniy migratsiya va odam savdosi bo‘yicha ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning holati va istiqbollari haqida bir qancha loyihamar muhokama qilindi, shuningdek ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish, uni kelgusida Respublika qonunchiligiga implemintatsiya qilish maqsadida migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiq etish va ulardan foydalanish zarurligi to‘g‘risidagi takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Yurtimizda sodir bo‘layotgan eng muhim va katta siyosiy tadbirlardan biri O‘zbekiston Respublikasing Konstitutsiyasi o‘zgartish to‘g‘risida Referendum bo‘lib o‘tmoqda shu munosabat bilan joriy yilning ²²30-mart sanasida Markaziy saylov komissiyasida Xalqaro migratsiya tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbariyati bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida mehnat, o‘qish, davolanish va boshqa sabablarga ko‘ra xorijiy davlatlarda bo‘lgan, istiqomat qilayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Referendumga ovoz berish huquqlarini yana-da ta’minlash masalalari muhokama qilindi. ²³Xususan uchrashuvda saylovlar va referendum davrida O‘zbekiston Respublikasining diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida ham uchastka komissiyalari tuzilganligi, xorijda bo‘lgan vatandoshlarimizning saylovlar va referendumga oid xabardorligini oshirish, ularni ovoz beruvchilar ro‘yxatiga kiritish va ro‘yxat bilan tanishtirish, ovoz berish joyi va vaqtি haqida xabardor qilish borasidagi keng ko‘lamli ishlar tashkil etilayotganligi qayd etildi. Markaziy saylov komissiyasi raisi Z.Nizamxodjayev saylovlar va referendum jarayonlarida Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan hamkorlikni kuchaytirish xorijdagi O‘zbekiston fuqarolarining saylovlar va referendumdagи ishtirokini kengaytirishda, ularning ovoz berish huquqlarini ta’minlashda, yuqorida keltirib o‘tilgan sa’yi-harakatlarni to‘laqonli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tdi. Uchrashuv davomida Xalqaro migratsiya tashkilotining Markaziy Osiyo bo‘yicha submintaqaviy koordinatori, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Turkmaniston, O‘zbekistondagi missiyasi rahbari Zeynal Gadjiyev Markaziy saylov komissiya bilan hamkorlik aloqalarni rivojlantirishga va amaliy yordam ko‘rsatishga tayyor ekanligini bildirib o‘tdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki Xalqaro migratsiya tashkiloti bugungi kunda eng muhim hukumatlararo tashkilotlardan biri hisoblanadi shu sababli ham ushbu tashkilotning ²⁴tavsiyalarni majburiy tusdagi tavsiyalar qatoriga kiritilishi kerak deb

²²<https://saylov.uz/oz/news/2023/03/30/xalqaro-migratsiya-tashkilotining-ozbekistondagi-vakolatkhonasi-vakillari-bilan-uchrashuv>

²³<https://saylov.uz/oz/news/2023/03/30/xalqaro-migratsiya-tashkilotining-ozbekistondagi-vakolatkhonasi-vakillari-bilan-uchrashuv>

²⁴<https://cyberleninka.ru/article/n/migratsiya-sohasini-samarali-boshqarishda-xalqaro-tashkilotlarning-tutgan-o-rni>



hisoblaymayman. Garchi Xalqaro migratsiya tashkilotining tavsiyalari majburiy tusda bo'lmasada, siyosat, qonunchilik va amaliy foaliyat sohasida qo'llanma vazifasini bajaradi. Shuningdek, Xalqaro migratsiya tashkilotining bo'lib o'tadigan yig'ilishlarni O'zbekiston Respublikasida ham o'tkazishni taklif qillardim sababi yig'ilishlarni O'zbekiston Respublikasi hududi o'tkazish orqali mamlakatimizni tashkilotdagi o'rnini yanada mustahkamlash va tashkilot bilan aloqalarini yuqori darajaga olib chiqish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari har yili Xalqaro migratsiya tashkiloti a'zo davlatlarining Ichki ishlar vazirlari yig'ilishini ham tashkil etish kerak deb hisoblayman buning sababi migratsiya bo'lib chiqan fuqarolarni diniy oqimlarga kirib ketishiga qarshi choralar ko'rib chiqishi va shunga o'xshash loyihalar ishlab chiqishi kerak va Xalqaro migratsiya tashkiloti shuningdek tashkilotga a'zo mamlakatlar o'tasida yoshlar bilan ishlash bo'limi rahbarli doirasida yig'ilishlar o'tkazilishi kerak, buning sababi hozirgi vaqtida chet elga chiqib ketayotganlarning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi. Kelib chiqayotgan muommolarning ko'pchiligi aynan yoshlar bilan bog'liq. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti o'tasidagi aloqalarni yanada yuqori darajaga olib chiqish kerak deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-4283429>
2. https://uza.uz/oz/posts/toshkentda-xalqaro-migratsiya-tashkiloti-vakolatxonasi-ochiladi_245021
3. <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/xalqaro-migratsiya-tashkiloti-baholash-jamoasining-tashrifi>
4. <https://insonhuquqlari.uz/oz/news/press-release-about-training-for-journalists-in-ferghana>
5. <http://ht.gov.uz/uz/2021/09/hamkorlik-va-sheriklik-munosabatlari-muhokama-qilindi/>
6. <https://saylov.uz/oz/news/2023/03/30/xalqaro-migratsiya-tashkilotining-ozbekistondagi-vakolatkhanasi-vakillari-bilan-uchrashuv>
7. <https://saylov.uz/oz/news/2023/03/30/xalqaro-migratsiya-tashkilotining-ozbekistondagi-vakolatkhanasi-vakillari-bilan-uchrashuv>
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/migratsiya-sohasini-samarali-boshqarishda-xalqaro-tashkilotlarning-tutgan-o-rni>